

## XUFYONA IQTISODIYOTNI KELIB CHIQISHI

**Qarshiyeva Dilsora**

*Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hozirgi vaqtda iqtisodiyot va jamiyatning globallashuvi, yashirin iqtisodiyotning paydo bo'lishining asosiy sabablarini tahlil qilish va uning evolyutsiyasini tarixiy sharoitda kuzatish hamda integratsiya jarayonlarning chuqurlashib borishi bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xufyona iqtisodiyot, qonuniy, noqonuniy, korrupsiya, ishlab chiqarish, jinoyat, soliqlar, giyohvand moddalar, odam savdosi, iqtisodiy barqarorlik, davlat, huquq tartibot organlari.*

**Abstract:** *This article currently describes the globalization of the economy and society, the analysis of the main reasons for the emergence of a hidden economy and the observation of its evolution in historical conditions, and the deepening of integration processes.*

**Keywords:** *foreign economy, legal, illegal, corruption, production, crime, taxes, drugs, human trafficking, economic stability, state, law enforcement.*

**Аннотация:** *В этой статье описывается глобализация экономики и общества в настоящее время, анализ основных причин возникновения скрытой экономики и наблюдения за ее эволюцией в исторических условиях, а также углубление интеграционных процессов.*

**Ключевые слова:** *фиктивная экономика, законный, незаконный, коррупция, производство, преступность, налоги, наркотики, торговля людьми, экономическая стабильность, государство, правоохранительные органы.*

**Kirish.** Xufyona iqtisodiyot - bu davlat organlaridan, shu jumladan soliq va statistika xizmatlaridan ataylab yashirilgan barcha iqtisodiy operatsiyalarning yig'indisidir. Bu esa, yashirin iqtisodiyotda olingan daromadlar deklaratsiyalanmaydi va tegishli operatsiyalar rasmiy statistikada aks ettirilmaydi.

Jadal texnologik taraqqiyot va globallashuv sharoitida xufyona iqtisodiyot jahon iqtisodiyoti uchun jiddiy muammolardan biriga aylandi. Uning ko'lamini jamiyatning turli jabhalariga ya'ni olimlardan to siyosatchilargacha tashvishga solmoqda. Lekin bu nima? Bu hodisaning asosi va uning tarixiy ildizlari nimada?

Xufyona iqtisodiyot davlat rasmiy statistika ma'lumotlarni buzish bilan bir qatorda soliq tushumlarni kamaytirib, samarali iqtisodiy siyosatni shakllantirishni qiyinlashtiradi hamda moliyaviy bozorlarda beqarorlikka olib keladi. Ko'p hollarda xufyona iqtisodiyot korrupsiya, pul yuvish va boshqa jinoyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Uning tabiatini o'rganish salbiy hodisalarga qarshi kurashishga ko'mak beradi.

Qo'shma Shtatlardagi taqiqlar davri 1920-1933-yillar. Spirtli ichimliklarni ishlab chiqarish, sotish va tashishni taqiqlash uyushgan jinoyatchilikning gullab yashnashiga

hamda alkogolli ichimliklarni noqonuniy ishlab chiqarish va uning savdosiga asoslangan butun imperiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi.

*Nima uchun ushbu taqiqlash metodi xufyona iqtisodiyotning yorqin namunasi deyiladi?*

Sun'iy talabni yaratish spirtli ichimliklarni taqiqlash insonlarning uni iste'mol qilish istagini oshiradi, bu esa talabning kuchayishiga va qora bozorning paydo bo'lishiga olib keladi. Uyushgan jinoyatchilik talabni qondirish uchun spirtli ichimliklarni ishlab chiqarish, tashish va sotishni nazorat qiluvchi kuchli jinoiy tashkilotlar paydo bo'ladi. Jinoiy guruhlar o'rtasidagi raqobat qotilliklarga va doimiy to'qnashuvlarga olib keladi.

Xufyona iqtisodiyotning hajmi davlatdan davlatga sezilarli darajada farq qiladi, soliq qonunchiligi murakkabligi, korrupsiya va iqtisodiy erkinlik darajasi va shu kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot YAIMdan oshib ketadi. Masalan, Afrikaning ayrim davlatlarida xufyona iqtisodiyot barcha iqtisodiy faoliyatning yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Xufyona iqtisodiyotning ulushi yuqori bo'lgan tarmoqlar: savdo, xizmat ko'rsatish, qurilish. Ushbu tarmoqlar xufyona iqtisodiyotda eng keng tarqalgan tarmoqlaridir.

Maqoladan ko'zlangan maqsad mamlakatimizdagi xufyona iqtisodiyotning ko'lami, uning jamiyat uchun salbiy oqibatlari haqida ma'lumot berish hamda ushbu muammoni hal etish yo'llarini taklif etish.

Xufyona iqtisodiyotning tarixiy ildizlari.

Qadimgi jamiyatlarda ham mayda savdogarlar va hunarmandlar qayd etilmagan norasmiy ayirboshlash operatsiyalarni amalga oshirishgan. O'rta asrlarda ko'plab savdogarlar va hunarmandlar rasmiy gildiyalardan tashqarida ishlab soliq to'lashmagan.

Dengiz qaroqchilari va kontrabandachilar har doim xufyona iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo'lib, noqonuniy savdo va talonchilik bilan shug'ullanishgan.

Sovet davrida ham xufyona iqtisodiyot keng tarqalgani bois, rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida tovarning yetishmasligi va narxlarning sun'iy ravishda pastligi odamlarni o'z ehtiyojlarini qondirish uchun norasmiy bozorga yuzlanishga majbur bo'lgan

### **Tahlil va natijalar**

Xufyona iqtisodiyot tarixiy davrlarda va barcha jamiyatlarda mavjud bo'lgan murakkab hodisa hisoblanadi. Uning ko'lami hamda shakli muayyan vaqt va sharoitga qarab farq qiladi.

Xufyona iqtisodiyotni tahlil qilishda birinchilar qatorida ingliz sotsiologi K.Xart hisoblanadi. U ilmiy muomalaga norasmiy iqtisodiyot atamasini kiritadi. Daromad olishning rasmiy va norasmiy shakllari orasidagi farqni o'z o'zini ish bilan band qilish va ish haqi asosida olingan daromad orasidagi farq sifatida deb izohlaydi.

*Yuqori soliqlar va murakkab soliqa tortish.* Soliq to'lovlarini kamaytirish maqsadida tadbirkorlar o'z faoliyatlarining bir qismini soyaga o'tkazishga majbur bo'lishmoqda.

*Byurokratik to'siqlar.* Davlat tizimidagi haddan ziyod byurokratizatsiya va korrupsiya tadbirkorlarni qonuniy faoliyatdan qaytaradi.

Yuqori inflyatsiya va iqtisodiy inqiroz davrida odamlar jamg'armalarini yashirin sektorga o'tkazish orqali saqlab qolishga intilishadi. Bu holatni beqaror iqtisodiy vaziyat deb baholaymiz.

Davlat institutlari va huquq tartibot organlariga ishonchining pastligi odamlarni yashirin sektorda ishlashga undaydi.

Qashshoqlik, ishsizlik va tengsizlik xufyona iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beradi, chunki odamlar pul topish uchun har qanday imkoniyatlarni izlaydi.

Mulk huquqlarini himoya qilish kafolatlarining yo'qligi, sud-huquq tizimining samarasizligi xufyona iqtisodiyotning o'sishi uchun sharoit yaratadi.

Globalashuv xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadi, misol uchun noqonuniy bo'lgan odam savdosi, ularning turli ta'na a'zolarining savdosi va pul yuvish.

Xufyona iqtisodiyot faoliyat miqyosi va xarakterining o'zgaruvchanlik chegaralari juda keng – jinoiy faoliyatdan olinadigan daromaddan to tuzatilgan elektr uchun elektrikni bir shisha aroq bilan “mukofatlash”gacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Xufyona iqtisodiy faoliyat o'zining natijaviyligiga ko'ra ishlab chiqarish va qayta taqsimlash turlariga bo'linadi. Xufyona iqtisodiyot qayta ishlab chiqarish faoliyati quyidagi turlarda aniqlanadi:

- xufyona ishlab chiqarish;
- xufyona taqsimot;
- xufyona ayirboshlash;
- xufyona iste'mol.

Davlat nazoratidan o'tmagan, yashirin, noqonuniy, qalbaki yoki sifatsiz mahsulotlarni ishlab chiqarish noratsional foydalanishda namoyon bo'ladi.

Xufyona taqsimlash davlat mulkini o'g'irlash, noqonuniy taqsimlash ishlari, o'zlashtirish va fuqarolar xususiy mulkiga tajovuz qilish hamda unga nisbatan jinoyatlarda namoyon bo'ladi.

Xufyona ayirboshlash xarid qilish niyatida bo'lgan fuqarolarni aldas, noqonuniy savdolar, noqonuniy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishda yuzaga keladigan vaziyatlarda yuzaga keladi.

Xufyona iste'mol xizmatlardan noqonuniy foydalanish va noqonuniy yo'l bilan topilgan mahsulotlarni iste'mol qilishda namoyon bo'ladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Soliqlardan qochish sababli davlat byudjeti tushumlarining kamayishi, davlat xizmatlarini sifatini pasaytiradi. Soliq yukining adolatsiz taqsimlanishiga olib kelishi tufayli qonuniy tarzda faoliyat yurituvchi korxonalar ko'proq soliq to'lashga majbur etiladi.

Xufyona iqtisodiyotda ishtirok etuvchi kompaniyalar qonuniy ishlovchi bizneslarga nisbatan noqonuniy imtiyozlarga ega bo'ladi( soliq to'lamaslik,...) . Bu esa sog'lom raqobatga zarar yetkazib, qonuniy bizneslarni bozorga kirishdan qaytaradi.

Xufyona iqtisodiyot korrupsiya darajasini oshiradi, chunki bu jarayon ko'p hollarda davlar organlari vakillari bilan til birlashtirishni talab etadi. Jinoyat faoliyati giyohvand moddalar savdosi, odam savdosi orqali moliyaviy oqimlar ko'payadi

Ushbu tadqiqotda mavjud ilmiy maqolalar, adabiyotlar va iqtisodiy hisobotlarni tahlil qilish orqali xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari o'rganildi. Xufyona iqtisodiyotning shakllari, omillari va oqibatlarini aniqlash uchun iqtisodiy ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot uchun xalqaro tashkilotlar va boshqa ochiq manbalardagi hisobotlar va statistikalar ishlatildi. Xufyona iqtisodiyot bo'yicha ilmiy maqolalar, kitoblar va tahliliy sharhlar asosida nazariy ma'lumotlar olindi.

Shuningdek, avval xufyona iqtisodiyotning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar (masalan, korrupsiya, soliqdan qochish, va qonuniy bo'lmagan faoliyatlar) belgilab olindi. So'ngra xufyona iqtisodiyotning qaysi sohalarda ko'proq uchrashi o'rganildi (masalan, xizmatlar, savdo, yoki ishlab chiqarish).

Xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari va ularning iqtisodiyotga ta'sirini aniqlandi.

#### **Xulosa va takliflar**

Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun mehnat qonunchiligi, soliqlar va biznes yuritishga oid qonunlarni takomillashtirish, soliq stavkalarini kamaytirish va ularni soddalashtirish orqali tadbirkorlarni qonuniy iqtisodiy faoliyat yuritishga undash lozim. Shu qatorda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lida ham naqd pul muomalasini cheklash va raqamli to'lov tizimlarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa pullarni nazorat qilish imkonini oshiradi va yashirin faoliyatni qiyinlashtiradi.

Respublikaning tadbirkorlari uchun tadbirkorlik muhitini yaxshilash, ya'ni biznesni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziya olish va faoliyatni boshlash jarayonlarini soddalashtirish hamda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish bilan birga davlat tomonidan subsidiyalar va imtiyozlar taqdim etish talab etiladi.

Xufyona iqtisodiyot oz muddat foyda keltirsa-da, lekin uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikka, jamiyatda adolatga va davlat tizimiga zarar yetkazadi. Ushbu muammolarni hal etish uchun soliq tizimini soddalashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirish, davlat nazoratini mustahkamlash va aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish kerak. Faqat shunday holatda mamlakat iqtisodiyoti rivojlanib, jamiyatda adolatli va farovon hayot ta'minlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xufyona iqtisodiyot: o'quv qo'llanma// Abulqosimov H.P., Muminov N.G. T.: "Yangi nashr", 2020.
2. Institutsional iqtisodiyot: o'quv qo'llanma// B.B. Berkinov ; O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot un-ti. T.: Yangi nashr, 2011.
3. Cassel D., Cichy U. The Shadow Economy and Economic Policy in East and West: A Comparative System Approach // The Unofficial Economy. Consequences and Perspectives in Different Economic Systems / Ed. By S. Alessandrini and B. Dallago. Gower, 1987.
4. Boboqul o'g'li, H. S., & Shaxlo, U. (2024). INVESTITSIYALAR UCHUN RISKLAR VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI. *Miasto Przyszłości*, 49, 535-54
5. Hazratqulov, S. (2024). Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.